

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”

Nizomiy nomidagi
O'zbekiston milliy
pedagogika universiteti
rektorasi



E. Karimova
2025-yil

“Kelishildi”

O'zbekiston
Respublikasi
Maktabgacha va
maktab ta'limbazirligi



KASBIY (IJODIY) IMTIHON
DASTURI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI
Tasviriy san'at (rangtasvir) va Chizmachilik fanlari

60111500 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi”

(kunduzgi) ta'lim yo'nalishi uchun

“Kelishildi”

O'zbekiston
Respublikasi
Oly ta'lim, fan va
innovatsiyalar
vazirligi



Toshkent – 2025

Dastur Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti O'quv uslubiy kengashining 2025-yil “5 iyun” dagi “11”-son qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

- **R.Sh.Xalilov**
O'zMPU “Tasviriy san'at” kafedrasи mudiri, dotsent
- **M.K.Xalimov**
O'zMPU “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasи mudiri, dotsent
- **G'T.Dadayev**
O'zMPU Professional ta'lif fakulteti dekani
- **X.E.Sultanov**
Chirchiq DPU San'atshunoslik fakulteti professori, s.f.f.d. (PhD).
- **S.F.Abdirasilov**
O'zMPU “Tasviriy san'at” kafedrasи professori, p.f.n.

Taqrizchi:

- **X.E.Sultanov**
Chirchiq DPU San'atshunoslik fakulteti professori, s.f.f.d. (PhD).
- **S.F.Abdirasilov**
O'zMPU “Tasviriy san'at” kafedrasи professori, p.f.n.

KIRISH

60111500 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lif yo'naliishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi kasb-hunar maktablari hamda umumiy o'rta ta'lif maktablaridagi tasviriy san'at va chizmachilik fanlari dasturi asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. 60111500 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lif yo'naliishiga hujjat topshirgan abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihonda tasviriy san'at va muhandislik grafikasining asosi "bo'lgan rangtasvir va chizmachilik" fanlaridan amaliy ish bajarib, o'zlarining bilimlarini namoyon etadilar. Bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

I. Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talabiar.

1. Abituriyentdan rangtasvir fanidan natyurmortni qog'ozga to'g'ri joylashtirishi, usq chizig'ini to'g'ri topishi, predmetlarning hajmi, o'zaror nisbatini to'g'ri topishi, perspektiva qonuniga rioya qilishi, soya-yorug', refleksni to'g'ri topishi, akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanishi, naturadagi buyum hajmlarini to'g'ri aks ettirishi, buyumlardagi soya va yorug'lami to'g'ri aniqlashi. buyumlarning fakturasini (gips, sopol, metall, mato, va hokazolar) topishi, qo'yilgan vazifa to'liq bajarishi talab etiladi.

2. Abituriyentdan chizmachilik fanidan berilgan ikki proyeksiyani to'g'ri ko'chirishi, masshtabni to'g'ri tanlashi, yetishimovchi proyeksiyani to'g'ri topishi, qirqimlarni to'g'ri bajarishi, aksonometrik proyeksiyani qirqimlari bilan to'g'ri bajara olishi, chizmalarda chiziq turlariiga, o'lchamlar qo'yishda qoidaga rioya qilishi, chizmalarni qog'ozga to'g'ri joylashtira bilishi va ishni sifatli bajarishi talab etiladi.

Abituriyent jadval bo'yicha belgilangan kunda har bir fanga 3 astronomik soat (180 daqiqa) vaqt davomida grafik ish bajaradi. Tasviriy san'at (**rangtasvir**) hamda chizmachilik fanlari bo'yicha bajariladigan ish qog'ozining o'lchami A3 formatda bo'ladi.

Bu ishlarni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Tasviriy san'at (rangtasvir) fanidan bajarilgan ishga 10 tadan savol, chizmachilikdan 9 ta savol qo'yiladi va bu savollarga sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolari bajarilgan ishning hajmi va sifatiga qarab ball qo'yadilar. Har bir fan bo'yicha ballar qaydnomaga yoziladi va umumlashtiriladi.

Mazkur yo'nalişda kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun qo'yiladigan maksimal ball - 156 ni tashkil etadi,

Rangtasvir	- 93 ball
Chizmachilik	- 63 ball

RANGTASVIR

Nº	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1	Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgan va konstruktiv qurilishi to'g'ri bajarilgan	0-9 gacha
2	Ufq chizig'i to'g'ri topilgan, perspektiva qonun-qoidalariга rioya qilingan	0-9 gacha
3	Qo'yilmadagi buyumlarning hajmi, o'zaro nisbati to'g'ri topilgan	0-9 gacha
4	Qo'yilmadagi buyumlarning fazoviy joylashuvi to'g'ri topilgan	0-9 gacha
5	Akvarcl bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalilanigan	0-9 gacha
6	Qo'yilmadagi ranglar munosabati to'g'ri topilgan	0-9 gacha
7	Yorug'-soya qonunlariga to'g'ri amal qilingan	0-9 gacha
8	Buyumlarning material-fakturasi (gips, sopol, metall, mato va hokazolar) to'g'ri aks ettilrilgan	0-10 gacha
9	Qo'yilmadagi buyumlarning yaxlitligi to'g'ri topilgan	0-10 gacha
10	Qo'yilgan vazifa to'liq bajarilgan	0-10 gacha

1. Natyurmort qog'ozga to'g'ri joylashtirilgan va konstruktiv qurilishi to'g'ri bajarilgan

Ballar	Mezonlar
9 ball	Natyurmort qog'oz sathiga muvozanatlari va markazlashgan holda joylashtirilgan. Konstruktiv qurilishi a'llo darajada bajarilgan.
8 ball	Natyurmort to'g'ri joylashtirilgan, konstruktiv chiziqlar aniq, lekin mayda kamchiliklari mavjud.
7 ball	Natyurmortning joylashuvi va konstruksiysi umumiy holda yaxshi, ayrim shakllarda yengil xatoliklar bor.
6 ball	Natyurmort to'g'ri joylashtirilgan, lekin konstruktiv qurilishida aniqlik yetishmaydi.
5 ball	Natyurmort markazga nisbatan siljigan. Konstruksiyada murakkablik mavjud, shakllar noto'g'ri chizilgan.

4 ball	Natyurmort joylashuvi muvozanatsiz. Konstruktiv chiziqlar tushunarsiz yoki noto'liq.
3 ball	Natyurmort yuzaga tasodifiy joylashtirilgan. Konstruksiya deyarli yo'q.
2 ball	Natyurmort shakllari tushunarsiz holda joylashgan. Konstruktiv yondashuv umuman ko'zga tashlanmaydi.
1 ball	Natyurmortda joylashuv va konstruksiya umuman inobatga olinmagan.
0 ball	Natyurmort chizilmagan yoki topshiriq bajarilmagan.

2. Ufq chizig'i to'g'ri topilgan, perspektiva qonun-qoidalariga rioya qilingan

Ballar	Mezonlar
9 ball	Natyurmortda ufq chizig'i aniq va to'g'ri topilgan, barcha obyektlar perspektiva qonunlariga to'liq rioya qilgan holda ishlangan.
8 ball	Natyurmortda ufq chizig'i to'g'ri, aksariyat shakllar perspektivada aniq berilgan, lakin juda mayda xatoliklar mavjud.
7 ball	Natyurmortda ufq chizig'i va asosiy obyektlar perspektivasi to'g'ri, ammo ayrim xatolar ko'zga tashlanadi.
6 ball	Natyurmortda ufq chizig'i to'g'ri, lakin perspektivada ba'zi clementlar noto'g'ri berilgan.
5 ball	Natyurmortda ufq chizig'i joyida, ammo ko'p obyektlar perspektivaga rioya qilunasdan chizilgan.
4 ball	Natyurmortda ufq chizig'i noto'g'ri belgilangan, perspektiva qonunlari yetarlicha inobatga olinmagan.
3 ball	Natyurmortda ufq chizig'i sezilmaydi yoki juda xato, ko'plab obyektlar noto'g'ri chizilgan.
2 ball	Natyurmortda ufq chizig'i umuman belgilanmagan, perspektivaga mutlaqo rioya etilmagan.
1 ball	Natyurmortda ufq chizig'i va perspektiva tamoyillari umuman tushunarsiz, ishlar asossiz bajarilgan.
0 ball	Natyurmort chizilmagan yoki ufq chizig'i va perspektiva bilan bog'liq ishlar bajarilmagan.

3. Qo'yilmadagi buyumlarning hajmi, o'zaro nisbati to'g'ri topilgan

Ballar	Mezonlar
9 ball	Natyurmortda barcha buyumlarning hajmi va o'zaro nisbati mukammal aniqlangan. Hech qanday xato mavjud emas.
8 ball	Natyurmortda buyumlarning asosiy nisbatlari va hajimi aniq berilgan, mayda kamchiliklar bor, lakin umumiy ko'rinish muvozanatlari.
7 ball	Natyurmortda buyumlarning ko'pchiligidagi hajmi to'g'ri berilgan, lakin ayrimlarda noto'g'ri nisbatlar kuzatiladi.
6 ball	Natyurmortda buyumlar hajmi asosan to'g'ri, lakin ba'zi clementlarda sezilarli xato mavjud.
5 ball	Natyurmortda katta va kichik shakllar nisbatida ko'zga yaqqol tashlanadigan xato bor.
4 ball	Natyurmortda umumiy hajmni aniqlashda muvozanatni ko'rsatishda xatolar mavjud. Nisbatlar noto'g'ri aniqlangan.
3 ball	Natyurmortda hajmlar noto'g'ri, ko'pchilik buyumlar asl nisbatlarga javob bermaydi.
2 ball	Natyurmortda hajm tushunchasi ko'zga tashlanmaydi. Buyumlar tasodifiy o'lchamda

	chizilgan.
1 ball	Natyurmortda hajm va nisbat inobatga olinmagan. Barcha shakllar noto'g'ri berilgan.
0 ball	Natyurmort chizilmagan yoki buyumlar butunlay mavjud emas.

4. Qo'yilmadagi buyumlarning fazoviy joylashuvi to'g'ri topilgan

Ballar	Mezonlar
9 ball	Natyurmortda barcha buyumlar fazoda aniq joylashgan. Munosabatlar mukammal berilgan.
8 ball	Natyurmortda fazoviy joylashuv to'g'ri olingan. Biroz kamchiliklar bo'sa-da, asosiy ko'rinish saqlangan.
7 ball	Natyurmortda buyumlarning ko'pchiligidagi hajm to'g'ri berilgan, lekin ayrimlarida noto'g'ri nisbatlar kuzatiladi.
6 ball	Natyurmortda buyumlar hajmi asosan to'g'ri, lekin natyurmortning 2-3 elementlarida sezilarli xato mavjud.
5 ball	Natyurmortda katta va kichik shakllar nisbatida ko'zga yaqqol tashlanadigan xato bor.
4 ball	Natyurmortda umumiy hajmni aniqlashda jiddiy muvozanatsizlik bor. Nisbatlar noto'g'ri aniqlangan.
3 ball	Natyurmortda hajmlar noto'g'ri, ko'pchilik buyumlar asl nisbatlarga javob bermaydi.
2 ball	Natyurmortda hajm tushunchasi ko'zga tashlanmaydi. Buyumlar tasodifiy o'chamda chizilgan.
1 ball	Natyurmortda hajm va nisbat inobatga olinmagan. Barcha shakllar noto'g'ri berilgan.
0 ball	Natyurmort chizilmagan yoki buyumlar butunlay mavjud emas.

5. Akvarel bo'yog'i texnikasidan to'g'ri foydalanilgan

Ballar	Mezonlar
9 ball	Natyurmortda akvarel texnikasi juda aniq, shaffoflik va o'tishlar mahorat bilan bajarilgan. Hech qanday texnik xato yo'q.
8 ball	Natyurmortda akvarel texnikasi yuqori darajada. Mayda xato bor, lekin umumiy ta'sirda shaffoflik va tozalik saqlangan.
7 ball	Natyurmortda asosiy akvarel uslubi to'g'ri qo'llanilgan. Ba'zi o'tishlarda yoki qatlamlarda kichik texnik kamchiliklar kuzatiladi.
6 ball	Natyurmortda akvarel bo'yoglarida toza ishlangan, lekin yorug'-soya o'tishlari yoki suv bilan ishlashda xatoliklar bor.
5 ball	Natyurmortda akvarel texnikasi noto'g'ri qo'llangan joylar ko'p. Rang palitrasи xira olingan va reflekslar berilmagan.
4 ball	Natyurmortda akvarelga xos shaffoflik yo'qolgan. Bo'yog noto'g'ri surtilgan, ko'p qatlamlari va xira ko'rinishda.
3 ball	Natyurmortda akvarel texnikasining asosiy prinsiplari buzilgan. Oq ranglar xiralashgan, tozalik yo'q.
2 ball	Natyurmortda akvarel noto'g'ri aralashtirilgan. Qo'llanilgan usulda suv va bo'yog muvozanati saqlanmagan.
1 ball	Natyurmortda akvarel bo'yog'ida ishlangan joylar notog'ri qo'llanilgan. Rang munosabatlari aniqlanmagan.
0 ball	Natyurmort chizilmagan yoki rang yechimi berilmagan.

6. Qo'yilmadagi buyumlarning hajmi, o'zaro nisbati to'g'ri topilgan

Ballar	Mezonlar
10 ball	Natyurmordta barcha materiallar (gips, sopol, mato, metall va h.k.) o'z xususiyatiga mos ravishda aniq, ishonchli va tabiiy aks ettirilgan.
9 ball	Natyurmordta dcyarli barcha materiallar to'g'ri berilgan, mayda teksturada kamchiliklar mavjud.
8 ball	Natyurmordta materiallar asosan to'g'ri berilgan, lekin 1-2 buyumning fakturasiga yetarlichcha farqlanmagan.
7 ball	Natyurmordta materiallar yaxshi berilgan, ammo ayrim materiallar (masalan, metall va sopol) o'zaro farqlanmagan.
6 ball	Natyurmordta 2-3 turdag'i material farqi bor, boshqalarda farq sezilmaydi.
5 ball	Natyurmordta asosiy materiallar farqlanadi, lekin detallashtirish kam, yuzadagi tuzilmalar yomon berilgan.
4 ball	Natyurmordta materiallarning ko'p qismi bir xil berilgan. Faktura tushunchasi zarif.
3 ball	Natyurmordta materiallar farqlanmaydi, hammasi tekis va umumiyl, hech qanday faktura belgilanmagan.
2 ball	Natyurmordta materiallarning xususiyati aniqlanmagan, barcha buyumlar xom va tayyorlanmagan ko'rinishda.
1 ball	Natyurmordta material sifati tushunarsiz. Buyumlarning rang yechimi xira, noaniq.
0 ball	Natyurmord chizilmagan yoki materiallar umuman ko'rsatilmagan.

7. Yorug'-soya qonunlariga to'g'ri amal qilingan

Ballar	Mezonlar
9 ball	Natyurmordta yorug' va soya o'rtasidagi o'tishlar mukammal, yorug'liq manbasi aniq, shakllar hajmi tabiiy ko'ringan. Hech qanday xato yo'q.
8 ball	Natyurmordta yorug'-soya munosabati aniq. Mayda texnik xatoliklar bor, lekin umumiyl ko'rinish juda yaxshi.
7 ball	Natyurmordta yorug'liq manbasi to'g'ri tanlangan, asosiy shakllar soya bilan hajmi berilgan. Ba'zi o'tishlar yumshoq emas.
6 ball	Natyurmordta yorug' va soya bor, tus nisbatlari ko'rsatilgan.
5 ball	Natyurmordta yorug' va soya to'g'ri qo'llanmagan. Shakllarda hajm yctishmaydi, nur manbasi noaniq.
4 ball	Natyurmordta yorug'-soya munosabati deyarli sezilmaydi. Obyektlar tekis, nur taqsimoti noto'g'ri.
3 ball	Natyurmordta yorug'-soya tamoyillari buzilgan. Tasvirda nur va hajm aloqasi yo'q.
2 ball	Natyurmordta yorug'-soyani berishga urinish bor, lekin tasvir juda noaniq va texnik xatolar ko'p.
1 ball	Natyurmordta yorug'-soya tushunchasi inobatga olinmagan. Barcha shakllar tekis, nursiz ko'rinishda.
0 ball	Natyurmord chizilmagan yoki yorug'-soya bilan umuman ishlanmagan.

8. Buyumlarning material-fakturasi (gips, sopol, metall, mato va hokazolar) to'g'ri aks ettirilgan

Ballar	Mezonlar
10 ball	Natyurmordta barcha materiallar (gips, sopol, metall, mato va h.k.) o'z xususiyatiga mos ravishda aniq, ishonchli va tabiiy aks ettirilgan.

9 ball	Natyurmortda deyarli barcha materiallar tabiiy berilgan, kichik texnik kamchiliklar umumiylar ta'sirga salbiy ta'sir qilmaydi.
8 ball	Natyurmortda asosiy materiallar to'g'ri berilgan, lekin bir-ikki elementda faktura yetarlicha farqlanmagan.
7 ball	Natyurmortda materiallar ko'rsatilgan, lekin ba'zi materiallar (masalan, metall va sopol) o'zaro yetarlicha farqlanmaydi.
6 ball	Natyurmortda 2 turdag'i material farqlanadi, boshqalarida farq sezilmaydi. Material xususiyatlari yetarlicha ochib berilmagan.
5 ball	Natyurmortda asosiy materiallar farqlanadi, lekin detallashtirish kam, fakturlar umumiylar, yuzaki ko'rinishda.
4 ball	Natyurmortda materiallarning ko'p qismi bir xil ko'rinishda. Faktura tushunchasi zaif.
3 ball	Natyurmortda materiallar umumiylar tusda, barcha buyumlar tekis ko'rinishda. Faktura deyarli berilmagan.
2 ball	Natyurmortda materiallarning xususiyati aniqlanmagan. Obyektlar aniqlanmagan.
1 ball	Natyurmortda materiallar noto'g'ri berilgan, xira, noaniq. Materiallarning asil xususiyatlari yo'q.
0 ball	Natyurmort chizilmagan yoki buyumlar butunlay mavjud emas.

9. Qo'yilmadagi buyumlarning hajmi, o'zaro nisbati to'g'ri topilgan

Ballar	Mezonlar
10 ball	Natyurmortda barcha buyumlar o'zaro bog'liq, bir kompozitsion tuzilmada uyg'unlashgan va yaxlitlik mukammal saqlangan.
9 ball	Natyurmortda buyumlar orasida kompozitsion bog'lanish to'g'ri aniqlanigan. Mayda farqlar bo'lsa-da, umumiylar yaxlitlik ta'siri saqlangan.
8 ball	Natyurmortda asosiy shakllar o'zaro to'g'ri bog'langan. Ayrim elementlar alohida tuyulsa-da, umumiylilik yetarlicha saqlangan.
7 ball	Natyurmortda yaxlitlik sezildi, lekin 1–2 element boshqalardan ajralib turibdi.
6 ball	Natyurmortda kompozitsiyadagi bog'lanish zaif. Buyumlar orasida ma'lum darajada uzilish mavjud.
5 ball	Natyurmortda umumiylilik yetishmaydi. Buyumlar tartibi va shakllar o'zaro bog'lanmagan.
4 ball	Natyurmortda elementlar o'rtasida aloqa zaif. har bir shakl alohida berilgan, umumiylar yaxlitlik sezilmaydi.
3 ball	Natyurmortda butunlik tushunchasi saqlanmagan. Kompozitsiyada elementlar tasodifiy joylashgan.
2 ball	Natyurmortda buyumlar o'zaro hech qanday bog'liqlikka ega emas.
1 ball	Natyurmortda yaxlitlik umuman mavjud emas, buyumlar xira ishlangan, bir-biri bilan bog'lanmagan.
0 ball	Natyurmort chizilmagan yoki kompozitsiya umuman ishlanganmagan.

10.Qo'yilmadagi buyumlarning hajmi, o'zaro nisbati to'g'ri topilgan

Ballar	Mezonlar
10 ball	Natyurmortda barcha talablar va ko'rsatmalar to'liq bajarilgan. Vazifa mukammal, to'liq ishlangan va xatolari yo'q.
9 ball	Natyurmortda vazifa deyarli to'liq bajarilgan. Juda mayda kamchiliklar bor, lekin umumiylar natijaga ta'sir qilmaydi.
8 ball	Natyurmortda barcha qismlar bajarilgan, lekin 1–2 ta yo'nalishda to'liqlik

	yetishmaydi.
7 ball	Natyurmortda asosiy topshiriqlar bajarilgan, ayrim detallar yuzaki ishlangan.
6 ball	Natyurmortda vazifaning yarmi to‘liq bajarilgan, qolgan qismida kamchiliklar ko‘p.
5 ball	Natyurmortda ko‘plab elementlar ishlasmagan, vazifa jarimcha bajarilgan.
4 ball	Natyurmortda vazifaning asosiy qismlari bajarilmagan. Faqat ayrim detallar berilgan.
3 ball	Natyurmortda topshiriqni bajarilishi juda zaif. Ishlanishi yuzaki, qisman tushunardi.
2 ball	Natyurmortda topshiriq bajarilishi deyarli ko‘rinmaydi. Talablarning asosiy qismlari inobatga olinmagan.
1 ball	Natyurmortda vazifa noto‘g‘ri tushungan yoki butunlay noto‘g‘ri bajarilgan.
0 ball	Natyurmort chizilmagan yoki topshiriq umuman bajarilmagan.

Rangtasvir bo‘yicha abituriyentlarning to‘plashi mumkin bo‘lgan maksimal ballarning umumiyligi miqdori – **93 ball**

CHIZMACHILIK

Nº	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1	Berilgan ikki proyeksiya to‘g‘ri ko‘chirilgan, masshtab to‘g‘ri tanlangan	0-7 gacha
2	Yetishmovchi proyeksiya to‘g‘ri topilgan	0-7 gacha
3	Qirqimlar to‘g‘ri bajarilgan	0-7 gacha
4	Aksometrik proyeksiya to‘g‘ri boshlangan	0-7 gacha
5	Aksometrik proyeksiya tugallangan	0-7 gacha
6	Aksometriyada qirqim to‘g‘ri bajarilgan	0-7 gacha
7	Chizmalarda chiziq turlariga rioya qilingan	0-7 gacha
8	O‘lchamlar qo‘yishda qoidaga rioya qilingan	0-7 gacha
9	Chizmalar chizma qog‘oziga to‘g‘ri joylashtirilgan va sifatli bajarilgan	0-7 gacha

Chizmachilik bo‘yicha abituriyentlarning to‘plashi mumkin bo‘lgan maksimal ball - **63 ball**

II. Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish tartibi

60111200 – Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunda, har bir fandan 3 astronomik soat (180 daqiqa) vaqt davomida rangtasvir fanidan natyurmort qo‘yilmasini hamda chizmachilik fanidan grafik ish bajaradilar. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruuhlar 20 –30 nafar abituriyentlardan iborat bo‘lib, kasbiy (ijodiy) imtihon guruuhlar bo‘yicha o‘tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihon rangtasvir fanidan molbert va planshetlar bilan jihozlangan xonalarida hamda chizmachilik fanidan stol-stul bilan jihozlangan xonalarida o‘tkaziladi.

Tasviriy san’at (rangtasvir). Tasviriy san’at nazariyasi asosida natyurmortning o‘zaro nisbatli, havo perspektivasi qonuniyatlarini, kompozitsiya

tuzilishi, yorug' va soya tushunchalari negizida gipsli geometrik jism, uy-ro'zg'or buyumlari, meva va sabzavotlar rangli mato fonida o'ziga qarab tasviri rangda bajariladi.

Chizmachilik. Chizmachilik fanidagi vazifalar O'zDStga rioya qilgan holda bajariladi. Buyumlarning berilgan ikki proyeksiyasiga asosan yetishmovchi proyeksiyasini topish, kerakli qirqimlari bilan aksonometriyasini qog'oz formatida qalamda amaliy bajarish malakalarini aniqlashdir.

Bajarilgan ishlarni baholash quydagi tartibda amalga oshiriladi: rangtasvir fani bo'yicha ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, baholash mezoniga mos ravishda 0 (nol) baldan 9 (10) balgacha, chizmachilik fanidan ish to'liq va to'g'ri bajarilgan bo'lsa, baholash mezoniga mos ravishda 0 (nol) baldan 7 balgacha belgilanadi.

Fan bo'yicha sinov o'tkazuvchi komissiya a'zolaridan tashkil etadi va ular shu ta'lim yo'nalishiga kadrlar tayyorlovchi kafedra professor-o'qituvchilar tarkibidan jalb etiladi.


III. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar natijalar bo'yicha apellyatsiya tartibi


Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalaridan norozi bo'lganda, natija e'lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin.

Arizalar faqat ularning baholari va ijodiy ishlari bilan bog'liq bo'lgan taqqirda qabul qilinadi, ammo boshqa abituriyentlarning ijodiy ishlari to'g'risida shikoyatlar qabul qilinmaydi.



Kasbiy (ijodiy) imtihon dasturi va
baholash mezoniga ilova

**“Rangtasvir” fani bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko'rsatmasidan
NAMUNA**





**“Chizmachilik” fani bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihon uslubiy ko‘rsatmasidan
NAMUNA**



Izometriya a:b:c=1:1:1

